



**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING IJTIMOIIY PROFILAKTIKANI  
AMALGA OSHIRISHDA MAHALLIIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI  
BILAN HAMKORLIGI**

**Narziyev Shahzod Zoyirovich**

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi  
faoliyati kafedrasi o‘qituvchisi mayor*

**Maxsudbekov Munisbek Mardonbek o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o‘quv kursi kursanti*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda yurtimizda profilaktika inspektorlarining ijtimoiy profilaktikani tashkil etish, bu boradagi faoliyatini takomillashtirish borasida bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun hamda Prezident farmonlari asosida ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish va profilaktika inspektorlarining bu boradagi hamkorligini yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu chora-tadbirlar huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, shuningdek huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar sonini kamaytirishga qaratilgan.*

**Kalit so‘zlari:** *Ijtimoiy profilaktika, profilaktika inspektori, hamkorlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, “e-ijtimoiy profilaktika”, ijtimoiy moslashtirish dasturi.*

**Abstract:** *At present, a series of systematic measures are being implemented in our country to improve the activities of preventive inspectors and to organize social prevention more effectively. In accordance with the Law “On the Prevention of Offenses” and Presidential decrees, efforts are being made to establish effective mechanisms for implementing social prevention and enhancing the cooperation of preventive inspectors in this field. These measures are aimed at maintaining and strengthening public order, ensuring early prevention of offenses, and reducing the number of individuals who are at high risk of committing or becoming victims of offenses.*

**Keywords:** *Social prevention, crime prevention inspector, cooperation, crime prevention, “e-ijtimoiy profilaktika”, social adjustment program.*

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407 son Qonuning 11-moddasida “Ichki ishlar organlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to‘g‘risidagi axborotni almashishni, shu jumladan elektron shaklda almashishni, shuningdek boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 -yil 29-



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



noyabrdagi PF-27 son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ““Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 30-noyabrdagi VMQ-801 son qarori bilan ““Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan bo‘lib, unda ijtimoiy profilaktikani amalga oshiruvchi subyektlar hamda ular tomonidan ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish tartibi belgilab berilgan.

Ushbu Nizomda ijtimoiy profilaktikani amalga oshiruvchi subyektlar sifatida mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektorlari ko‘rsatilgan.

Ushbu Nizom asosida profilaktika inspektorlari “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi orqali yuborgan ijtimoiy profilaktika obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar uch kun ichida o‘rganib chiqadi. Ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiradi yoki amalga oshirishni rad etish to‘g‘risida xulosa tayyorlashi belgilangan. Ijtimoiy profilaktika subyektlari ijtimoiy profilaktika tadbirlarini ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida amalga oshiradi.

Ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida qabul qilgan qaror bo‘yicha ijtimoiy moslashtirish dasturida ijtimoiy profilaktika obyektiga nisbatan amalga oshiriladigan ijtimoiy profilaktika tadbirlari va ularning muddatlari aks ettiriladi.

Ijtimoiy moslashtirish dasturi ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarning har biri uchun alohida tuziladi, ijtimoiy moslashtirish dasturiga har bir ijtimoiy profilaktika obyekti kiritiladi hamda dastur tasdiqlangan vaqtdan boshlab ijroga qaratiladi.

Ijtimoiy moslashtirish dasturida belgilangan tadbirlarning bajarilishi bo‘yicha ma‘lumotlar muntazam ravishda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan axborot tizimiga kiritib boriladi.

Axborot tizimiga kiritilgan ma‘lumotlarning haqqoniyligi uchun ularni kiritgan shaxs shaxsan javobgar hisoblanadi.

Profilaktika inspektorining ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniqlash va ularga doir ma‘lumotlarni ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarga o‘z vaqtida taqdim etish, shuningdek, mazkur Nizomning 17-bandi “b” kichik bandiga muvofiq uning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy moslashtirish dasturida belgilangan tadbirlarning bajarilish ahvoli tuman (shahar) huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmasi tomonidan kunlik monitoring qilib boriladi.

Profilaktika inspektorlari ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida quyidagilarni amalga oshiradi:

□ Spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo‘lib qolgan shaxslarning turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini o‘rganadi, ular bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar o‘tkazadi,





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar bilan birgalikda kasbiy layoqatidan kelib chiqib kasb-hunar o‘rganishga jalb qilish, sog‘lom hayotga qaytarish, ijtimoiy-huquqiy, psixologik va boshqa yordamlar ko‘rsatish, shuningdek, ushbu salbiy odatga ruju qo‘yishning omillarini bartaraf etish maqsadida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va kompleks psixologik-tibbiy rehabilitatsiya qilish choralarini ko‘radi;

□ Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga ruju qo‘ygan shaxslarning turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini o‘rganadi, ular bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazadi, ushbu o‘yinlarning salbiy oqibatlarini va javobgarlikni tushuntiradi, uning omillarini bartaraf etishga ko‘maklashadi;

□ G‘ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslarning turmush tarzi, xulq-atvori va g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarining sabablarini o‘rganadi, ular bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar o‘tkazadi, ularni sog‘lom hayotga qaytarish hamda bunday salbiy xatti-harakatlarni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

□ Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslarning turmush tarzi, xulq-atvori, oilaviy sharoiti va kasbiy layoqatini o‘rganadi, hokim yordamchisi tomonidan ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish hamda bandligini ta‘minlash bo‘yicha zarur choralar ko‘rilishida yordam beradi;

□ Qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini o‘rganadi, vasiy yoki homiysi bo‘lmagan voyaga yetmaganlarga vasiy va homiy biriktirish, yoshlar yetakchisi bilan birgalikda ularning qiziqishidan kelib chiqib, fan, kasb-hunar va sport to‘garaklariga jalb qiladi, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish choralarini ko‘radi;

Profilaktika inspektorlari bu vazifalarni amalga oshirish davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2896 son Qaroriga ko‘ra hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2025-yil 15-fevraldagi “Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida” gi 84-son buyrug‘i asosida mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari boshqa sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikni qiladi.

Ushbu qarorning 5-bobiga asosan profilaktika inspektorlarining davlat tashkilotlari, boshqa tashkilotlar hamda aholi bilan hamkorligini tashkil etish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo‘yicha qo‘shma tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazish;

kollegial qarorlarni talab qiluvchi vazifalardan kelib chiqib qo‘shma yig‘ilishlar o‘tkazish;

mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati natijalari haqida xabardor qilib borish;

faoliyatga baho berish va birgalikda amalga oshirilgan ishlar natijalarini hisobga olish;



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



hamkorlikni tashkil etishning ilg‘or shakllari va usullarini umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Hamkorlikning darajasi, doirasi va xususiyatidan kelib chiqib, qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlar ham amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-913-XII-son Qonunida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari ekanligi hamda ushbu Qonuning 24-moddasida xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari keltirilgan. Ulardan bir nechtasini keltirsak:

hokimning taqdimiga binoan, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar budjetlarini tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko‘rib chiqish hamda qabul qilish;

viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlarining prognozlarini ma‘lumot uchun qabul qilish;

viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga, tumanlar va shaharlar budjetlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qarorlarni tasdiqlash;

tegishli budjetlardan moliyalashtiriladigan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitish;

viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining, shuningdek tumanlar va shaharlar budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko‘rib chiqish hamda tasdiqlash;

mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida belgilash;

hokimni va uning o‘rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o‘rinbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini, shuningdek hokimlarning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini tinglash;

ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda hokim qarorlarini tasdiqlash;

xalq deputatlarining so‘rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;

hokimning va quyi Kengashning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish;

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tegishli viloyatlarning viloyat budjetlaridan hamda Toshkent shahrining shahar budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini ko‘rib chiqadi hamda tasdiqlaydi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari jismoniy va yuridik shaxslarga tegishincha meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish va olib qo'yilgan yer uchastkalarida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarini buzib tashlash to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o'z vakolatlariga berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq nazorat etishga doir boshqa masalalarni hal etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib profilaktika inspektorlari ijtimoiy profilaktikani tashkil etish va amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organi hisoblangan xalq deputatlari tuman, shahar kengashlari bilan quyidagilarda hamkorlik qilishi mumkin:

- Profilaktika inspektorlari jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslarning turmush tarzi, xulq-atvori, oilaviy sharoiti va kasbiy layoqatini o'rganib, ushbu shaxslarga o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish, tadbirkotlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun subsidiyalar, imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha takliflar kiritishda;

- Spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan shaxslar hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan shaxslarning turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini o'rganib, ular ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda nazoratni amalga oshirishda;

- Ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish uchun profilaktika inspektorlarini hamda ijtimoiy profilaktika amalga oshiruvchi boshqa subyektlarni moddiy-texnik ta'minotini amalga oshirishda;

- G'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini mahalla faollari va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda yig'ilishda muhokamasini amalga oshirishda;

- Profilaktika inspektorlari, mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda ijtimoiy yordam, masalan, nogironlarga, muhtojlarga, oila zo'ravonligiga uchraganlarga yordam ko'rsatish xizmatlarini amalga oshiradilar, mahalliy davlat hokimiyat organlari bu xizmatlarni muvofiqlashtiradi va tegishli ijtimoiy yordamni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda profilaktika inspektori mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi hamkorlik ijtimoiy profilaktika tizimining samarasi uchun muhim tarkibiy qismidir. Bu hamkorlikni amalga oshirishda "E-ijtimoiy profilaktika" axborot tizimi orqali integratsiyalashtirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunday electron axborot tizimlarini joriy etish mahallalarda "xavfsiz", "barqaror", "ijtimoiy himoyalangan" muhitni barpo etish imkonini yanada oshiradi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407 son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-may kuni qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ 371-son Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'RQ-913-XII-son Qonuni;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 -yil 29-noyabrdagi PF-27 son Farmoni;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2896 son Qarori;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2024-yil 30-noyabrdagi VMQ-801 son qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-son buyrug'i.

